

SHARQSHUNOS OLIMA SUYIMA G‘ANIYEVA HAYOTI VA IJODI TALABA NIGOHIDA**Farangiz Muxammedova Maxmud qizi***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**2-bosqich talabasi**muhammedovafarangiz332@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sharqshunos olimi Suyima G‘aniyevaning oilasi, faoliyati, ijodi va hayotiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Unga ko‘ra olimaning hayot yo‘li ilmga bag‘ishlangan bo‘lib, asarlari nafaqat O‘zbekiston, balki Rossiya, Turkiya, Eron, Tojikiston, Ozarbayjon ilmiy doiralarida ham tan olingan. Mashhur sharqshunos olimaning ilmiy faoliyati Alisher Navoiyning ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlari: *mumtoz adabiyot, monografiya, nomzodlik dissertatsiyasi, “Majolis un-nafois”, “Navodir un-nihoya”, “Kohi Guliston”.*

Аннотация: *В данной статье даны сведения о семье, деятельности, творчестве и жизни востоковеда и навоиста Суймы Ганиевой. Согласно статье, жизненный путь ученого был посвящен науке, а ее труды получили признание не только в научных кругах Узбекистана, но и в России, Турции, Иране, Таджикистане, Азербайджане. Научная деятельность известного востоковеда посвящена изучению творчества Алишера Навои.*

Ключевые слова: *классическая литература, монография, кандидатская диссертация, “Маджалис ун-нафаис”, “Наводир ун-нихая”, “Коху Гулистан”.*

Annotation: *This article provides information about the family, activities, creativity and life of the anthropologist Suyma Ganiyeva. According to her, the scientist's life path was dedicated to science, and her works were recognized not only in the scientific circles of Uzbekistan, but also in Russia, Turkey, Iran, Tajikistan, and Azerbaijan. The scientific activity of the famous orientalist is devoted to the study of the work of Alisher Navoiy.*

Key words: *classical literature, monograph, candidate's thesis, "Majolis un-nafois", "Navodir un-nihoya", "Kohi Gulistan".*

Suyima G‘aniyeva yosh sharqshunoslarga o‘rnak taniqli navoiyshunos, sharqshunos olimi bo‘lib nafaqat O‘zbekiston ilmiy doiralarida, balki Rossiya, Turkiya, Eron, Tojikiston, Ozarbayjonda hurmatga sazovor. O‘zbekiston Qahramoni Suyima G‘aniyeva 1932-yil 20-fevralda Toshkent shahrida ishchilar oilasida tavallud topgan. Otasi G‘anijon Tursunov adabiyot va san‘at shaydosi, onasi Soraxon aya Alisher Navoiy va Mashrab

ijodini mukammal tarzda bilgan dono ayol edi. Olima yoshlik paytidan, 4-5 yoshlarida she’r va qo‘shiqlardan so‘zlarni yod olishga harakat qilar edi. Shunigdek, Alisher Navoiy ijodidan baytlarni yodlab ularni ifodali va aniq talaffuz qilishni o‘rganishga harakat qilishi olimaning ota-onasini hayratga solgan.

Suyima G‘aniyeva 1946-yili o‘rta maktabni bitirgach, O‘zbekiston Respublikasi Milliy universitetining tayyorgarlik kafedrasida ta’lim oladi va a’lo darajada o‘qigani sababli 1947-yil, 15 yoshida imtihonlarsiz Sharqshunoslik fakultetiga qabul qilinadi. S.G‘aniyevaning tirishqoq va zukkoligini payqagan ustozlari unga Sankt-Peterburgdagi Adabiyot institutiga kirishni tavsiya qiladi. 1953-1956-yillarda Leningrad davlat universiteti sharq fakulteti aspiranturasida o‘qiydi. Suyima G‘aniyeva ilmiy rahbari sharqshunos olim Aleksandr Nikolayevich Boldirev edi. Aleksandr Nikolayevich Boldirev olimaning bakalavrda o‘qiyotgan davrida “Fors mumtoz adabiyot” fanidan dars bergan va olimada katta taasurol uyg‘otgan edi. Olima dissertatsiyasi mavzusi “Majolis un-nafois”ning III va IV majlislari ilmiy-tanqidiy matni va adabiy tahlili bo‘lgan va uni 1956-yil 22-fevral 24-yoshida akademik ilmiy kengashida nomzodlik ishini himoya qildi. Olimaning dastlabki, asari “Alisher Navoiy” kitobi bo‘lib, unda Mir Alisher Navoiyning mashaqqatli hayoti, ijodiy faoliyat va buyuk adabiy merosi ommabop uslubda bayon etilgan. Bu kitobni olima yangi manbalardan foydalanib yozgan edi. So‘ngra Suyima G‘aniyeva “Majolis un-nafois” asarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida) kattagina so‘zboshi bilan 1961-yilda nashr etgandan va Moskva, Leningrad, Eron, Afg‘oniston, Turkiya olimlari bu kitobga juda katta qiziqish bildirib olimadan nusxa yuborishni so‘rashgan. Bunday katta qiziqish va e’tirofni ko‘rgan olimo “Majolis un-nafois” haqida 50ga yaqin maqolalarini o‘zbek, rus, ingliz, fors, olmon, fransuz tillarida chop ettirdi. 1962-yil olimaning “Navoiy hayoti va ijodi” nomli kitobi nashrdan chiqadi. Bu kitob qayta to‘ldirilib 1968-yilda qayta chop etiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Suyima G‘aniyevaning adabiy hayotida eng quvochli voqealaridan biri bu 1991-yilda Tehron shahrida joylashgan “Kohi Guliston” muzeyida saqlanilyotgan Navoiyning “Navodir un-nihoya” devonini to‘rtta tilda: o‘zbek, rus, ingliz va fors tillarida yozilgan so‘z boshi bilan nashrdan chiqara olgani. S.G‘aniyeva nafaqat sharqshunos va navoiyshunos, balki tarjimon, manbashunos va matnshunos olimo ham bo‘lgan. Olimo ish faoliyatini O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti kichik ilmiy xodimi sifatida boshlagan. Keyinchalik, 1970-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti ilmiy kotibi, Toshkent davlat konservatoriyasida kafedra mudiri lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. 1990-yildan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti faoliyat yuritishni boshlaydi. Shunigdek, 1991–1996-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetida hazrat Navoiy ijodidan maxsus ma’ruzalar o‘qidi. Shu bilan birga, Tehron, Nishopur, Kirmon, Pekin, Anqara, Moskva, Sankt-Peterburg, Boku, Tbilisi,

Yerevan, Olmaota, Bishkek, Ashxobod, Dushanbe shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalarda ham ilmiy ma’ruzalar qildi. Suyima G‘aniyeva o‘zbek mumtoz adabiyoti va uning jahon madaniyatidagi o‘rni to‘g‘risida fundamental tadqiqotlar muallifi bo‘lib, 14 ta monografiya, 350 dan ortiq ilmiy va nazariy maqolalar, 20 dan ortiq o‘quv qo‘llanmalar chop etgan.

Kitoblari:

“Alisher Navoiy hayoti va ijodi”,

“Alisher Navoiy ijodidagi insonparvarlik g‘oyalari“,

“Navoiy g‘azallarida zodagonlik motivlari”,

“Navoiyning vasiyati”,

“Navoiyning avtografi”.

Olimaning ijodiy asarlari nafaqat O‘zbekiston, balki Rossiya, Yaponiya, Eron, Hindiston, Indoneziya kabi mamlakatlarida ham nashr etilgan. Bu orqali olim o‘zbek mumtoz adabiyoti va ulug‘ Alisher Navoiy asarlarining umumbashariy g‘oyalari, o‘ziga xosliklarini butun dunyo mamlakatlarida targ‘ib qilgan.

Suyima G‘aniyevaning xizmatlari munosib qadrlandi. Olima Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, “Buyuk xizmatlari uchun” hamda “Fidokorona mehnatlari uchun” ordenlari sohibasi. 2015-yilda mustaqilligimizning 24 yillik bayrami munosabati bilan Suyima G‘aniyeva davlatimizning eng oliy unvoni “O‘zbekiston Qahramoni” va “Oltin Yulduz” nishoni bilan taqdirlandi. Shu bilan birgalikda olimaning ilmiy ijodi va ijodiy hayotiga bag‘ishlangan “Yo‘l” hujjatli filmi suratga olindi. Kino suratga olinglar yillarda “O‘zbekkino” aksiyadorlik jamiyati bosh direktori bo‘lgan Jahongir Qosimov mamlakatimiz rahbariyatining ko‘rsatmalariga muvofiq shakl va mazmun jihatdan yuksak badiiy filmlar yaratishga tobora ko‘proq e‘tibor qaratilayotganini ta’kidlab, ko‘p asrlik milliy qadriyatlarimizni, o‘zbek xalqining boy madaniy merosini namoyon etish, uni yosh avlodga yetkazishga alohida e‘tibor qaratish maqsadida “O‘zbekkino” kinostudiyasida taniqli telejurnalist Eshqobil Shukur ssenariysi asosida “Yo‘l” hujjatli filmi suratga olinadi.. Filmida atoqli navoiyshunos Suyima G‘aniyevaning taqdiri haqida so‘z boradi. Bu film orqali S.G‘aniyeva hayotiga oid boshqa hech qayerda keltirilmagan faktlar va voqealarni olimaning o‘zi so‘zlab bergan. Misol tariqasida; Hindiston, Germaniya, Afg‘oniston, Xitoyga ilmiy anjumarlar uchun safarlari va ular bilan bog‘liq voqealar. Ayniqsa, Xitoyga borganda Buyuk Xitoy devorini Navoiyning Sadii Iskandariy dostonidagi Iskandar devoriga taqqoslab ko‘rgani va ular juda o‘xshashligi olimani hayratga solganini so‘zlab bergan. Hujjatli film qahramoni Suyima G‘aniyevaga eng samimiy so‘zlari bilan 2007-2019-yillarda Sharqshunoslik instituti rektori bo‘lgan Abdurahim Mannonov, adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev, jurnalist Komiljon Shamsutdinov va boshqalar murojaat qildi.

“O‘zbekkino” sobiq bosh direktori ham Suyima G‘aniyevani film premyerasi va Alisher Navoiy merosini o‘rganishdagi ulkan yutuqlari bilan tabrikladi. 2018-yil 1-sentabrda Buyuk sharqshunos olima vafot etdi. Uni Toshkentdagi “Chig‘atoy” qabristoniga dafn qilishdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sharqshunos olima Suyima G‘aniyevaning sermashaqqat hayoti va Mir Alisher Navoiyning buyuk merosini o‘rganishga bag‘ishlagan ijodi nafaqat talabalarga, balki barchaga o‘rnakdir. U kabi hayot yo‘lini ilmga bag‘ishlaydigan va Navoiy ijodini sevib va astoydil o‘rganadigan olimlar dunyoda kam. Shu tufayli S.G‘aniyevaga professor Najmiddin tomonidan: “Ilm nuri ila ko‘ngli charag‘on olima” deb ta’rif berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suyima G‘aniyeva. <https://oyina.uz/uz/generation/96>
2. [4-iyul kuni Alisher Navoiy nomidagi kino saroyida “Yo‘l” filmining premyerasi namoyish etiladi — Daryo Yangiliklari](#)
3. [Suyima G‘aniyeva. Ko‘ngil shamchirog‘i | Xurshid Davron kutubxonasi](#)
4. Navoiyshunos olima, O‘zbekiston Qahramoni Suyima G‘aniyeva vafot etdi. <https://kun.uz/uz/64420416>